

JAMIYAT SALOMATLIGI, DINIY QADRIYATLAR VA TIBBIYOT O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

**Shomurovov Bilol,
Shomurodova Rushana**

Turon universiteti Tibbiyot fakulteti talabalari,

Ko‘rib turganingizdek so‘nggi 10 yil ichida butun dunyo bo‘ylab ochiq sochiqlik moda miqyosida keng tarqalmoqda. Bu trend yirik shaharlarda, ijtimoiy tarmoqlarda va pop-madaniyat orqali kengaymoqda. Moda industriyasi va ommaviy axborot vositalari jinsiy signallarni kundalik hayotga kiritib, odatiy madaniy normalarni o‘zgartirmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yosh avlod orasida bunday visual stimullar odatga aylanishi psixologik sezgirlikni kamaytiradi va shaxsiy chegaralarning sustlashishiga olib keladi. Ko‘p sonli ilmiy tadqiqotlar ayol tanasining ochiq ko‘rinishi va jinsiy stimullar erkaklarda jinsiy stressni yuzaga keltirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Stressning bu turi psixomatik buzilishlarga, qon bosimi oshishiga, uyqu buzilishiga va hatto reproduktiv tizim faoliyatiga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, **androgenlar va boshqa garmonlar** organizmda konsyerogen ta‘sir ko‘rsatib, uzoq muddatga onkologik kasalliklar, masalan prostatit saratoni va boshqa stressga bog‘liq kasalliklar xavfini oshiradi.

Shu bilan birga, tarixan va diniy qadriyatlarda shaxsiy chegaralarni himoya qilish mexanizmlari mavjud bo‘lgan. An‘anaviy kiyim madaniyati, hayo qoidalari va hijob kabi amallar shaxsiy chegaralarni mustahkamlaydi, erkak va ayol o‘rtasida bevosita jinsiy stressni kamaytiradi. **Shayx Ali Tantoviy** o‘zining **“Ey qizim”** kitobida ayol va qizlarni hayo va axloqiy chegaralarga rioya qilishga chaqiradi. Bu tavsiyalar ilmiy tahlil jihatidan shaxsiy chegaralarni saqlash, psixologik barqarorlikni oshirish va jinsiy stimullarning salbiy ta‘sirini kamaytiruvchi regulyator sifatida tushuntirilishi lozim. Ushbu ilmiy maqolada ham shuni ko‘rsatish maqsad qilingan.

Zamonaviy tibbiyot va psixofiziologiya fanlarida stress tushunchasi organizmning tashqi va ichki qo‘zg‘atuvchilarga bergan javobi sifatida izohlanadi.

Jinsiy xarakterdagi doimiy vizual stimullar (**ochiq kiyim, tor kiyim, tanani ochiq ko'rsatish erotik obrazlar**) erkak organizmida jinsiy qo'zg'alishni yuzaga keltiradi. Biroq bu qo'zg'alish tabiiy yo'l bilan qondirilmasa, u jinsiy stress holatiga aylanadi. Jinsiy stress – bu jinsiy qo'zg'alishning takroriy ravishda yuzaga kelib, lekin realizatsiya qilinmasligiga natijasida paydo bo'ladigan ichki psixofiziologik zo'riqish holatidir. Bu holat vaqtinchalik emas, balki uzoq muddat davom etsa, organizmida patalogik o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Jinsiy qo'zg'alish paytida erkak organizmida androgen garmonlari (xususan, testesteron) faol ajraladi. Normal sharoitda bu garmonlar reproduktiv salomatlik uchun zarur hisoblanadi. Ammo, qo'zg'alish tez-tez takrorlansa, lekin jinsiy qoniqish bo'lmasa unda androgenlar qonda o'rtacha darajada saqlanib qoladi. Bu fikrlarni rus olimi, dorishunos, Sovet fazogirlarini kosmosga uchirishda tayyorlashda ruxshunos shifokor akademik, bugungi kunda mashhur tibbiyot tahlilchisi va bu borada keng tajribalari bilan tanilgan olim **Leanit Aliksandrovich Kitayev Smik** o'zining **“Zo'riqish stress psixologiyasi”** mavzusidagi 900 betlik monografiyasida ham ta'kidlab o'tgan. Uning shu kitobdagi “Ayollar yalango'chlanishining erkaklar zo'riqishiga sabab bo'layotgani” haqidagi bobi Islomiy internet saytlarida katta shov-shuvlarga sabab bo'lmoqda.

Aniq fanlar bo'yicha tanilgan dunyoviy g'oyali akademikning zamonaviy ayollarning kiyim modasidagi yalang'ochlanishining xatarli oqibatlarini haqidagi chiqargan daxshatli xulosasi har qanday kishini bir seskantirishi turgan gap. Akademik Kitayev Smik o'zining bu mavzuga qanday qiziqib qolgani haqida Russia saytlaridan biridagi suhbatida shunday deydi;

Bir kuni shifoxonaga tushib qoldim va o'sha yerda bu ilmiy g'oya miyamga keldi.

Shu mavzuni tadqiq qila boshladim va shu tariqa jinsiy zo'riqishning onkologik kasalliklari borasidagi tadqiqot yuzaga keldi. Kitobim asosan zo'riqish stressing turli jihatlariga bag'ishlangan bo'lsada erkaklar va ayollarda yuzaga keladigan onkologik kasalliklarni keltirib chiqaruvchi sabablarni ham jiddiy o'rganib chiqdim. So'nggi yillarda (**Adenoma Saraton shishi va Prostatit saratoni, Vabo yanglig'**) madaniyatli **Ovrupa va Amerika** mamlakatlaridagi erkaklarni nobut qilyapti. Hozirgi asr boshiga kelib erkaklarning 40% da **Adenoma** uchraydigan bo'ldi. 40 yoshdan o'tganlarda esa bu raqam 50% ga yetadi. **AQSH da Patolog va**

Anatomlar 60 yoshdan o'tib vafot etgan kishilarning 80% da Prostatit saratoni kasalligini aniqlashgan. Boshqacha aytganda ularning aksariyati bu kasallikning fojeaviy oqibatlarini ayon bo'lgunicha dunyodan ketib bolgan. Shunisi hayratlanarliki musulmon mamlakatlarda erkaklar o'rtasidagi saraton kasalligi unchalik katta miqyosda o'smaotir. Akademik shifokor shunday xulosaga keladiki, Istemol jamiyatda hukmronlik qilayotgan mamlakatlarda keyingi 10 yilliklarda ayollarning ziynati, ilmiy til bilan aytganda ayollarning ikkilamchi jinsiy nishonalarini ochib namoyish qilib turuvchi kiyimlarni urfga kirishi erkaklarning umrini qisqartirmoqda...

Ayol tanasini ochib ko'rsatishga asoslangan zamonaviy moda fenomeni ayrim tadqiqotchilar tomonidan faqat estetik yoki individual erkinlik masalasi sifatida emas, balki ijtimoiy salomatlik demografik barqarorlikka ta'sir qiluvchi omil sifatida baholanmoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, Ovrupa sivilizatsiyasida ommalashgan ochiq kiyinish madaniyati uzoq muddatda jamiyatning biologik va ma'naviy mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Akademikning yangi kitobida yana shunda satrlar bor: Men fiziolog shifokor sifatida aytamanki, jinsiy ishoralarning hammasi, erkaklarda shaxvat va suqlanishni uyg'otadi. Shaharlik erkak kuniga anashunday ishoralardan 100, 200 tasiga ro'baro' bo'ladi va unda qo'zg'algan shaxvat tashqariga chiqmay qoladi va ong ostiga surib chiqariladi. Erkakning o'zi bu jarayonni sezmasligi mumkin. Ammo, tanasidagi qon androgenlarni so'rib ulguradi. Biroq aynan mana shu yerda ushbu jarayonning eng xatarli bosqichi sodir bo'ladi ya'ni androgenlar qonga saraton xavfini keltirib chiqarmaydigan katta miqdorda emas. Shuningdek savol tug'iladi. Nima uchun G'arbda badavlat va rivojlangan xalqlar tamoman qirilib kamayib boryapti. Biz so'z yuritayotgan muammo ham anashu halokatlarning asosiy sabablaridandir. Olim shunday xulosaga kelgach, bu narsani butun ommaga yetkazib, odamlarni jiddiy ogohlantirishga qaror qildi. Uning qat'iy fikriga ko'ra ayolni yalang'ochlashga asoslangan moda – Ovrupa xalqlarining yer yuzida tamoman qirilib yo'q bo'lib ketishiga olib boradi. Doimiy jinsiy stimullar erkak organizmida surunkali jinsiy stressni keltirib chiqargandan keyin nafaqat individual sog'liq muammolariga, balki reproduktiv salohiyatning pasayishiga olib keladi. Natijada nikoh kechikadi, tug'ilish kamayadi, oilaviy barqarorlik zaiflashadi. Demografik statistikalar shuni ko'rsatadiki, Ovrupaning ko'plab

rivojlangan mamlakatlarida tug'ilish darajasi aholi o'zini qayta tiklash darajasidan past. Shayx Ali Tantoviy "Ey qizim" kitobida shunday fikr bildirgan; **"Ularning zaminimizdagi o'rnini iffatini va ayollarining o'ranishini saqlagan va shu tariqa erkaklarini ham asraydigan xalqlar egallaydi. Bular musulmonlardir!"**

Ular qarama-qarshi ravishda, diniy va an'anaviy qadriyatlarni, xususan iffat, hayo va yopiq kiyinish madaniyatini saqlab kelayotgan jamiyatlarda ijtimoiy munosabatlar boshqacha tartibga solinadi. Ayolning tashqi ko'rinishi jinsiy signal emas, balki shaxs, oila va jamiyat sha'ni bilan bog'liq tushuncha sifatida qaraladi. Bu esa erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarni nikoh va ma'suliyat doirasida shakllantiradi. Islom madaniyatida ayolning o'ranishi uni kamsitish emas, balki uni obyektlashuvdan himoyalash, erkakni esa jinsiy zo'riqishdan saqlash mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, ayol iffatini saqlash orqali erkak salomatligi, oila mustahkamligi va jamiyat barqarorligi bir butun tizim sifatida qo'llab quvvatlanadi.

Akademik shifokor zamondoshlariga shunday deydi; Axir tushuninglar, Qadimgi Yunonlar va Rimliklarni cho'lg'ab olgan yalong'och badanga topinish balosi ularning batamom qirilib ketishlariga sabab bo'lmadimi, hozir ular qani? Yer yuzidan batamom yo'q bo'lib ketishgan. Ular harbiy harakatlar natijasida halok bo'lishmadi, balki ichlaridan buzilib o'zlarini jisman yo'q qilishdi. **Injil va Qur'onda** zikr qilingan **Sodom va Gomorra** shaharlari aholisining qirilib ketgani buning ko'pgina dalillaridan biridir. Ular hozirgi Ovrupa xalqlariga o'xshab tabiat qonunlarini buzgan. Uning tabiiy mexanzmlarini yakson qilgan holda o'z o'zini halok qilish yo'lidan borishgan edi. Akademik Kitayev Smik bu hayosizlikga qarshi o'tmish ajdodlarining an'anaviy qadriyatlarini qarshi qo'yadi. Va birinchi navbatda musulmon xalqlar shu jumladan hozirgi Slavyan xalqlarining ajdodlari iffat va hayo bilan kiyinishganini misol qilib keltiradi. U aytadiki Russiyadagi barcha xalqlarning XIX asrdagi kiyinishiga bir nazar soling, ayollar kiyimi butun badanini o'rab turadigan, tana a'zolarini ko'rsatmaydigan keng, etaklari uzun, tomog'igacha tugmalangan ko'ylak va sarafanlardan iborat bo'lgan. Bu kiyimlar nihoyatda guldor bayramona bo'lgani uchun ayollarni go'zal va jozibali ko'rsatgan ammo erkaklarda aslo shaxvat uyg'otmagan. Rus ayollarida ro'molini tasodifan boshdan tushurib yuborilib, sochlarini ochilib ketishishi katta ayb, katta axmoqlik sanalgan va bu xatoni tezda o'nglash kerak bo'lgan. Olim yana shunday

ta'kidlaydi: Bugungi ayollar esa yalang'och, oyoqlari va yelkalarini ko'z ko'z qilish bilan erkaklar sog'ligiga qabr qazishyapti. Uchrashuvga ketayotgan yarim yalang'och qiz bir erkakni baxtli qilsada, yo'lda o'nlab erkaklarni mayib majruh, jinsiy zaif qilib boryapti. Yarimyalang'och kiyimlarda qo'shiq kuylayotgan, filmlarga suratga tushayotgan ayollar esa qatliom quroliga aylanadi va bular G'arb xazorasini, sivilizatsiyasini mayib va xasta erkaklar jamiyatiga aylantirib bo'ldi.

Shayx Ali Tantoviy shunday deydi: "Bizlar nima qilishimiz kerak, G'arbning yalang'ochlanishiga tomoshabin bo'lib yoki unga taqlidan o'zimizni bu baloga urishimiz kerakmi yoki dinimiz ta'limotlariga binoan iffat bilan kiyinishga o'taylikmi? Ayollarimizni urfdan qolgan kiyimlarga qaytishga majburlash niyatimiz yo'q, ular kiyimning badanni o'rab turish xizmatigina borligini esdan chiqarmay, kiyim go'zallikka va salomatlikkagina mo'ljallanganini e'tiborga olib kiyinishsa bo'ldi". Erkaklarning har jihatdan sog'ligiga ayollarning kiyinishiga ham bog'liq ekan.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, ayollarning ochiq kiyinishiga asoslangan zamonaviy moda faqat estetik hodisa emas, balki jamiyatning biologik, ruhiy va demografik salomatligiga ta'sir etuvchi murakkab ijtimoiy omildir. G'arb sivilizatsiyasida bu jarayon erkaklar salomatligining zaiflashuvi, oilaviy institutning yemirilishi va tug'ilish darajasining pasayishi bilan bir vaqtda kechayotgani tasodifiy hol emas. Shayx Ali Tantoviy ta'kidlaganidek, muammo ayolni majburlash yoki uni jamiyatdan ajratish emas, balki kiyimning asl vazifasini qayta anglash zaruratidadir. Kiyim - tanani o'rash, shaxsiy chegaralarni himoyalash, sog'liq va ijtimoiy muvozanatni saqlash vositasidir. U shahvoniy qo'zg'atuvchi emas, balki go'zallik va salomatlikka xizmat qilishi lozim. Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, erkak salomatligi faqat individual turmush tarzi bilan emas, balki erkakni ham himoyalovchi profilaktik mexanizm vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatning sog'lom rivoji uchun G'arb modasini ko'r-ko'rona taqlid qilish emas, balki milliy, diniy va ilmiy asoslangan kiyinish madaniyatini shakllantirish muhimdir. Bu yo'l orqali nafaqat ma'naviy qadriyatlar, balki inson salomatligi, oila barqarorligi va kelajak avlodning sog'lom davomiyligi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Китаев-Смык Л.А *Психология стресса. Психологическая антропология.*-
Москва
2. Tantoviy A. *Ey qizim*-Qohira